

FOYDALANISH BO'YICHA QO'LLANMA

Xavfsizlik bo'yicha ko'rsatmalar va havolalar

LED TV*

* LG LED TVda LED yoritgichlariga ega bo'lgan LCD ekrandan foydalaniladi.

Iltimos, televizoringizdan foydalanishdan avval ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va undan keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ying.

Ogohlantirish! Xavfsizlik texnikasi ko'rsatmalari



DIQQAT

OCHILMASIN,
ELEKTR TOKI ZARBASI XAVFI BOR

DIQQAT: ELEKTR ZARBASINING OLDINI OLIISH UCHUN QOPQOQNI (YOKI ORQA QISMINI) OCHMANG. ICHIDA FOYDALANUVCHI TA'MIRLAY OLADIGAN QISMLAR YO'Q. MALAKALI MUTAXASSISGA MUHOJAT QILING.

 Ushbu belgi mahsulot ichida odamlarni elektr zarbasi urishi mumkin bo'lgan "xavfli kuchlanishga" ega izolyatsiyalanmagan qism borligini bildiradi.

 Ushbu belgi moslama bilan birga kelgan qo'llanma ichida muhim qo'llash va ta'mirlash (xizmat ko'rsatish) ko'rsatmalar borligi haqida foydalanuvchini ogohlantiradi.

OGOHLANTIRISH: YONG'IN YOKI ELEKTR ZARBASINING OLDINI OLIISH UCHUN MAHSULOTNI YONG'IR OSTIDA YOKI NAM JOYGA O'RNATMANG.

- YONG'IN TARQALISHINING OLDINI OLIISH UCHUN SHAM YOKI BOSHQA OCHIQ OLOVGA EGA NARSALARNI DOIMO MAHSULOTDAN UZOQDA TUTING.
 - **Televizor va/yoki masofadan boshqarish pultini quyidagi joylarda qoldirmang:**
 - Mahsulotni to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlarining ta'siridan saqlang.
 - Namlik yuqori bo'lgan joylar, masalan, hammomda.
 - Issiqlik manbalari, masalan, pechlar va boshqa issiqlik hosil qiluvchi qurilmalar yaqinida.
 - Oshxona peshtaxtalari yoki namlantirgichlar yaqinida; bu yerda ular osongina bug' yoki moy ta'sirida qolishlari mumkin.
 - Yomg'ir yoki shamol mavjud joylarda.
 - Mahsulotni suv tomchilashi yoki sachrash ta'siriga qo'yman va vaza, kosa kabi suv to'ldirilgan buyumlarni mahsulot ustiga yoki uning yuqorisida (masalan, qurilma ustidagi tokchalarga) qo'yman.
 - Benzin yoki shamchiroq kabi tez alanga oladigan narsalar yoniga, yoki TVga havo konditsioneri to'g'ridan-to'g'ri uradigan qilib o'rnatish.
 - O'ta chang joylarga o'rnatman.
- Aks holda bu yong'in, elektr toki urishi, yong'in/portlash, noto'g'ri ishlash yoki mahsulot deformatsiyasiga olib kelishi mumkin.

• Havo aylanish tizimi

- TVni yaxshi havo aylanish tizimi mavjud bo'lgan joyga o'rnatman. Kitoblar javoni kabi yopiq joyga o'rnatman.
 - Mahsulotni gilam yoki divan yostig'iga o'rnatman.
 - Mahsulot elektr manbaiga ulangan vaqtda uni sochiq yoki boshqa materiallar bilan to'sman yoki yopman.
 - Havo aylanish tizimi darchalariga tegmayotganiga ishonch hosil qiling. TVni uzoq vaqt davomida tomosha qilganda, uning havo aylanish darchalari qizib ketishi mumkin.
 - Quvvat manbaiga ulash shnurini bukishi, ezishi, eshikka qisib qo'yish yoki ustidan yurish kabi jismoniy yoki mexanik ta'sirlardan himoya qiling. Vilkalar, rozetkalar va shnur qurilmadan chiqadigan joylarga alohida e'tibor bering.
 - Elektr shnuri quvvat manbaiga ulangan vaqtda TVni qimirlatman.
 - Shikastlangan yoki amallab yetadigan elektr shnuridan foydalanman.
 - Elektr shnurini quvvat manbaidan chiqarib olayotganda vilkani mahkam ushlaganingizga ishonch hosil qiling. TVni quvvat manbaidan uzish uchun elektr shnuridan tortman.
 - Tarmoq rozetkasiga juda ko'p qurilmalarni ulaman, chunki bu uning yonishiga yoki tok urishiga sabab bo'lishi mumkin.
 - **Qurilmani Asosiy quvvat manbaidan uzish**
 - Elektr shnur vilkasi qurilmani uzish vositasi hisoblanadi. Favqulodda vaziyatlarda elektr shnur vilkasiga to'siqsiz yetish mumkin bo'lishi lozim.
 - Farzandlarinigizni televizorga osilib yoki tirmashib chiqishlariga yo'l qo'yman. Aks holda, televizor ag'darilishi va jiddiy jarohat yetkazishi mumkin.
 - **Tashqaridagi antennani yerga ulash** (Mamlakatga qarab farq qilishi mumkin):
 - Tashqaridagi antenna o'rnatilgan bo'lsa, quyidagi ehtiyot choralariga rioya qiling.
- Tashqaridagi antenna tizimi elektr simlari yoki elektr chiroqlari yoki elektr tarmoqlariga yaqin, shuningdek, ular bunday elektr simlari yoki elektr tarmoqlari bilan tutashishi mumkin bo'lgan joylarga joylashtirilmasligi lozim, chunki bunday holatlar o'lim yoki jiddiy shikast yetishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Kuchlanishning keskin oshishi va statik zaryad ortishining oldini olish uchun antenna tizimi yerga tutashtirilganligiga ishonch hosil qiling. AQSh Elektr jihozlaridan foydalanish Milliy kodeksining 810-bo'limi antenna machtasi va tayanch konstruksiyasining yerga ulanishi, o'tkazgichning antenna razryad blokiga ulanishi, yerga ulanish o'tkazgichlari o'lchami, antenna razryad bloki joylashuvi, yerga ulaydigan elektrodlar ulanishi va yerga ulaydigan elektrodlarga qo'yilgan talablar to'g'riligi bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.
- Elektr jihozlardan foydalanish Milliy kodeks bo'yicha antennani yerga ulash, ANSI/NFPA 70

- **Yerga ulash** (Yerga ulanmaydigan qurilmalar bundan istisno.)
 - Uchta tishli o'zgaruvchan tok shtekeri bilan yerga ulangan TV o'zgaruvchan tokning uchta teshikli yerga ulash rozetkasiga ulanishi lozim. Tok urishining oldini olish uchun yerga ulash kabeli to'g'ri ulanganligiga ishonch hosil qiling.
- Chaqmoq va momaqaldiroq vaqtida bu apparat yoki antennaga tegmang. Sizni elektr toki urishi mumkin.
- Elektr kabel TV va devordagi rozetkaga xavfsiz tarzda ulanganligiga ishonch hosil qiling, agar xavfsizlik ta'minlanmagan bo'lsa, teshik va vilkaga zarar yetishi va ekstremal holatlarda yong'in yuzaga kelishi mumkin.
- Metall yoki tez yonuvchan obyektlarni mahsulot ichiga tiqmang. Agar mahsulot ichiga yod jism tushib ketsa, elektr shnurini chiqarib oling va mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning.
- Elektr shnurining bir uchi quvvat manbaiga ulangan vaqtda uning boshqa uchiga tegmang. Sizni elektr toki urishi mumkin.
- **Quyidagilardan birortasi yuzaga kelsa, mahsulotni quvvat manbaidan darhol uzing va mahalliy mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning.**
 - Mahsulotga zarar yetganda.
 - Agar mahsulot (tarmoq adapteri, elektr shnuri yoki TV kabi) ichiga suv yoki boshqa mayda zarra kirib ketsa.
 - Agar TVdan tutun hidini yoki boshqa noxush hidlar chiqayotganini sezsangiz.
 - Chaqmoq va momaqaldiroq vaqtida yoki uzoq muddat davomida ishlatilmaganda.


TV pult yoki quvvat tugmasi orqali o'chirilgan bo'lsa ham, agar elektr shnur uzilmasa, o'zgaruvchan tik manbai blokka ulangan bo'ladi.
- TV yonida yuqori kuchlanishda ishlaydigan elektr jihozlardan (masalan, elektron pashsha haydagich) foydalanmang. Bu mahsulotning noto'g'ri ishlashiga olib kelishi mumkin.
- LG Electronics kompaniyasining yozma ruxsatisiz bu mahsulotni har qanday usul bilan o'zgartirishga urinmang. Yong'in chiqishi yoki toki urishi mumkin. Yordam yoki ta'mirlash uchun mahalliy mijozlarga xizmat ko'rsatish markazi bilan bog'laning. Ruxsat berilmagan o'zgartirishlar foydalanuvchini ushbu mahsulotdan foydalanish huquqidan mahrum bo'lishi mumkin.
- Faqat LG Electronics tomonidan tasdiqlangan ruxsat berilgan biriktirmalar / aksessuarlardan foydalaning. Aks holda bu yong'in, elektr toki urishi, noto'g'ri ishlash yoki mahsulotga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.
- O'zgaruvchan tok adapteri va elektr shnurini hech qachon qismlarga ajratmang. Bu yong'in yoki elektr toki urishiga olib kelishi mumkin.
- Adapter tushib ketmasligi uchun uni mahkam va ehtiyotkorlik bilan ushlang. Zarba tegishi adapterni buzishi mumkin.
- Yong'in yoki elektr toki urishining oldini olish uchun TVni nam qo'lingiz bilan ushlamang. Agar elektr shnur tilchasi nam yoki chang bilan qoplangan bo'lsa, vilkani to'liq quritib yoki changlarni artib tashlang.

• Batareyalari

- Aksessuarlarni (batareya va boshq.) bolalar qo'li yetmaydigan xavfsiz joyda saqlang.
- Batareyalarni bir-biriga tutashtirmang, ularni bo'laklarga ajratmang yoki ularning qizib ketishiga yo'l qo'ymang. Batareyalarni olovga yaqin qoldirmang. Batareyalarni ortiqcha issiqlik ta'sirida qoldirmaslik lozim.
- **Ko'chirish**
 - Ko'chirish vaqtida mahsulot o'chirilganligiga, rozetkadan uzilganligi va barcha kabellar ajratilganligiga ishonch hosil qiling. Kattaroq TVlarni ko'tarish uchun 2 yoki undan ko'proq kishi kerak bo'lishi mumkin. TVning old panelini bosmang yoki unga hech nimani tiyamang. Aks holda, bu mahsulotga zarar yetishi, yong'in chiqishi yoki shikast yetishi mumkin.
- Nanga qarshi qadoqlash materiallari yoki vinil qadoqni bolalarning qo'llari yetmaydigan joylarda saqlang.
- Zarba bo'lishiga, hech qanday obyektning mahsulot ichiga tushib ketishiga yo'l qo'ymang va ekran ustiga hech narsagi tushirib yubormang.
- Panelni qo'lingiz yoki mix, qalam yoki ruchka kabi o'tkir narsalar bilan kuchli bosmang yoki uni timamang. U ekranga zarar yetkazishi mumkin.
- **Tozalash**
 - Tozalayotganda, elektr shnurini qivvat manbaidan uzing va yumshoq/quruq material bilan ohista arting. Suv yoki boshqa suyuqliklarni TVga sepmang. Mahsulotlar va uning panelini shikastlaydigan oynak tozalash vositasi, havo tozalagich, insektiitsidlar, surma yog'lar, mum (avtomobilga oid, industrial), abraziv narsalar, eritkich, benzin, alkogol va hokazolardan foydalanmang. Aks holda bu elektr toki urishi yoki mahsulotga zarar yetishiga olib kelishi mumkin.

Tayyorlash

- Agar televizor zavoddan chiqarilgandan keyin ilk marta yoqilgan bo'lsa, uning initsializatsiyasi uchun bir necha daqiqa vaqt sarflanishi mumkin.
- Ko'rsatilgan tasvir televizoringizdagi farqlanishi mumkin.
- Televizoringizdagi OSD (display ekran) ushbu qo'llanmada ko'rsatilganidan biroz farq qilishi mumkin.
- Mavjud menyular va parametrlar kirish manbasi yoki siz foydalanayotgan mahsulot rusumidagidan farq qilishi mumkin.
- Kelajakda ushbu televizorga yangi funksiyalar qo'shilishi mumkin.
- Qurilmadan kirishga yaqin bo'lgan rozetkaga o'tish oson bo'lishi lozim. Ayrim qurilmalarda yoqish / o'chirish tugmasi bilan yoqilmasligi mumkin, qurilmani o'chirish uchun elektr shummi uzish kerak bo'ladi.
- Mahsulotingiz bilan yetkazib beriladigan buyumlar rusumga bog'liq ravishda turlicha bo'lishi mumkin.
- Mahsulot texnik xususiyatlari yoki ushbu qo'llanma tarkibiy qismiga mahsulot funksiyalarining yangilanishi tufayli avvaldan ogohlantirishsiz o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.
- Eng maqbul darajada ulanish uchun HDMI kabellari va USB qurilmalari qalinligi 10 mm dan, kengligi 18 mm dan kamroq bo'lgan uyachalarga ega bo'lishi kerak. USB kabeli yoki USB xotira kartasi televizoringizdagi USB portiga mos kelmagan hollarda USB 2.0 ga mos uzaytirma kabeldan foydalaning.



* $A \leq 10 \text{ mm}$

* $B \leq 18 \text{ mm}$

- HDMI logotipi yopishtirilgan tavsiya etilgan kabeldan foydalaning.
- Agar tavsiya etilgan HDMI kabelidan foydalanmasangiz, ekran namoyish qilmasligi yoki ulanishda xatolik yuz berishi mumkin. (Tavsiya qilingan HDMI kabeli turlari)
 - Ultra High Speed HDMI[®]/TM kabel (3 m yoki kamroq)


Alohida xarid

Sifat darajasini yaxshilash maqsadida alohida xarid qilinadigan buyumlar ro'yxati hech qanday ogohlantirishsiz almashtirilishi yoki unga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin. Ushbu buyumlarni xarid qilish uchun o'z dileringizga murojaat qiling. Ushbu qurilmalar faqat ma'lum rusumlardagina ishlaydi.

Rusum nomi yoki tuzilishi mahsulot funksiyalarining yangilanishi, ishlab chiqaruvchining vaziyati va ko'rsatmalariga asoslangan holda o'zgartirilishi mumkin.

Devorga mahkamlash kronshteynlari

VESA (Videoelektronikani Standartlashtirish Uyushmasi) talablariga javob beruvchi burama mixlar va devorga mahkamlanadigan tayanchdan foydalaning. Devorga o'rnatishda foydalaniladigan to'plam uchun standart o'lchamlar quyidagi jadvalda keltirilgan.



Rusum	32/43LT34*	49LT34*
VESA (A x B) (mm)	200 x 200	300 x 300
Standart burama mix	M6	M6
Burama mixlar soni	4	4
Devorga mahkamlanadigan tayanch	LSW240B MSW240	OLW480B MSW240
Rusum	28LT34*	
VESA (A x B) (mm)	100 x 100	
Standart burama mix	M4 x L20	
Burama mixlar soni	4	
Devorga mahkamlanadigan tayanch	LSW149	


Televizorni ko'tarish va siljitish

Il'timos, televizorning turi va hajmidan qat'iy nazar televizorning timalishi yoki unga zarar yetishi xavfining oldini olish va uni xavfsiz tarzda tashish uchun quyidagi maslahatlarga amal qiling.


- Televizorni u dastlab olib kelingan quti yoki o'ramda siljitish tavsiya qilinadi.
- Televizorni siljitish yoki ko'tarishdan avval undagi quvvat manbaiga ulash shnuri va barcha kabellarni uzib qo'ying.
- Televizorni ushlab turganda unga zarar yetishining oldini olish uchun uning ekrani sizga teskari holda bo'lishi kerak.



- Televizor korpusining yuqori va quyi qismlarini mahkam ushlang. Shaffof qismi, dinamik yoki dinamikning to'rtli qismidan ushlab olmaganligingizga ishonch hosil qiling.



- Katta televizorlarni tashish uchun kamida ikki kishi bo'lishi kerak.
- Televizor qo'lda tashilgan vaqtda uni quyidagi tasvirda ko'rsatilgani kabi ushlang.




- Televizorni tashish vaqtida uni zarbalar yoki ortiqcha tebranishlar ta'sirida qoldirmang.
- Televizorni tashish vaqtida uni vertikal holatda ushlang, hech qachon televizorni yon tomonga burmang va chapga yoki o'ngga qiyalatmang.
- Rama shassilarining bukilishi/egilishiga olib keluvchi ortiqcha bosim ishlatmang, chunki bu ekranga zarar yetkazishi mumkin.
- Televizor bilan muomala qilganda bo'rtib turgan tugmalarni shikastlamaslik uchun ehtiyot bo'ling.



- Hamma vaqt ekranga tegib turishdan saqlaning, chunki bu ekran buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Kabellarni tutqichlaridan ushlagan holda televizorni siljitmang, chunki ular sinishi va buning natijasida shikastlanishi yoki televizorga zarar yetkazishi mumkin.
- Tayanchni TVga mahkamlashda ekranni timalishlardan himoya qilish uchun ekranni yumshoq stol yoki tekis yuzaga qaratgan holda qo'ying.

Stol ustiga o'rnatish

- 1 Televizorni ko'taring va uni vertikal holatga keltirgan holda stol ustiga qo'ying.
 - Yetarlicha havo aylanib turishi uchun devor bilan televizor orasida (eng kamida) 10 sm masofa qoldiring.



(Rusumga qarang)

- 2 Quvvat manbai shnurini rozetkaga ulang.




- Mahsulotni yig'ish paytida burama mix qismlariga begona moddalarni (moylar, moylash materiallari, va hokazolar) qo'llamang. (Bunday qilish mahsulotga shikast yetkazishi mumkin.)
- Agar siz televizorni tayanchga o'rnatmoqchi bo'lsangiz, mahsulotning ag'darilib ketishining oldini olish bo'yicha choralar ko'rishingiz kerak bo'ladi. Aks holda, televizor tushib ketishi, bu esa shaxsiy zarar xavfiga olib kelishi mumkin.
- Xavfsizlik va mahsulotning xizmat ko'rsatish davomiyligini kafolatlash uchun ruxsatnomaga ega bo'lmagan buyumlardan foydalanmang.
- Ruxsat berilmagan buyumlardan foydalanish orqali yetkazilgan har qanday zarar yoki shikastlanishlar ishlab chiqaruvchi kafolati orqali qoplanmaydi.
- Burama mixlarning to'g'ri kiritilganligi va mahkam qotirilganligiga ishonch hosil qiling. (Agar ular yetarli darajada mahkam qotirilmagan bo'lsa, TV o'rnatilgandan keyin oldinga qulab ketishi mumkin.) Ortiqcha ko'p kuch ishlatmang yoki burama mixlarni ortiqcha qotirib yubormang; aks holda burama mix shikastlanishi va to'g'ri qotirilmasligi mumkin.

Televizorni stolga mahkamlash

(Rusumga qarab)

TV oldinga/orqaga surilmasligi va buning natijasida mahsulotga zarar yetmasligi uchun u stol ustiga mahkamlanishi zarur.

A tur




4 ta vint
(TV bilan birga taqdim etilmaydi)



- Burama mix : M5 x L (*L: Stol chuqurligi + 8~10 mm)
misol) Stol chuqurligi: 15 mm, Burama mix: M5 x L25

B tur




Taglikni qotirish uchun 2 ta vint,
Taglikni qotirish uchun 2 ta bolt,
Taglikni qotirish uchun 2 ta gayka
(TV bilan birga taqdim etiladi)




Kensington xavfsizlik tizimidan foydalanish

Kensington xavfsizlik tizimi konnektori TVning orqa tomonida joylashgan. O'rnatish va foydalanish to'g'risida qo'shimcha ma'lumot olish uchun Kensington xavfsizlik tizimi tomonidan taqdim etilgan qo'llanmaga qarang yoki <http://www.kensington.com> saytiga tashrif buyuring. TV va stol orasiga Kensington xavfsizlik tizimi kabelini ulang.



(Rusumga qarab)

Televizorni devorga mahkamlash




(Rusumga qarab)


- 1 Teshikli boltlar yoki devorga mahkamlanadigan tayanch va boltlarni televizorning orqa paneliga kiriting va tortib mahkamlang.
 - Agar teshikli boltlar o'rinda boltlar o'rnatilgan bo'lsa, ularni olib tashlang.
 - 2 Tayanchlarni boltlar yordamida devorga o'rnatish. Tayanch va televizor orqa panelidagi teshikli boltlarning joylashuv o'rinlarini moslashtiring.
 - 3 Teshikli boltlar va tayanchlarni mustahkam bog'lagich bilan ulang. Bog'lagich tekis sirtida gorizontal holatda bo'lishiga ishonch hosil qiling.
- Televizor mahkam turishi uchun yetarli darajada mustahkam va katta platforma yoki shkafdan foydalaning.
 - Tayanch moslamalar, boltlar va bog'lagichlar mahsulot bilan birga yetkazib berilmaydi. Qo'shimcha qurilmalar uchun mahalliy dileringizga murojaat qiling.

Devorga montajlash

Devorga o'rnatiladigan tayanchni televizorning orqa tarafiga ehtiyotlik bilan mahkamlang va uni mustahkam devorga polga perpendikulyar holda o'rning. Televizorni boshqa qurilish mollariga birlashtirishda malakali xodimga murojaat qiling. LG devorga o'rnatishni malakali mutaxassis tomonidan amalga oshirilishini tavsiya qiladi. Biz LGning devorga o'rnatish kronshteynidan foydalanishni tavsiya qilamiz. LG-ning devorga o'rnatish kronshteynini ulangan kabellar bilan joyini o'zgartirish osondir. Iltimos, LGning devorga o'rnatish kronshteynidan foydalanilmagan holatlarda, tashqi qurilmalarga ulanish uchun yetarlicha joy bilan ta'minlangan va devorga mahkam qotirilgan devor kronshteynidan foydalaning. Qotirilgan devorga o'rnatish kronshteynini o'rnatishdan oldin barcha kabellarni ulash tavsiya qilinadi.



- Devorga o'rnatish kronshteynini o'rnatish vaqtida tasmadan foydalangan holda chang va hasharotlar oqimini oldini olish uchun tayanch teshigini himoya qilish tavsiya qilinadi. (Rusumga qarab)



- Televizorni devorga o'rnatishdan avval tayanchni mahkamlash harakatlarini teskari tartibda bajargan holda tayanchi televizordan ajratib oling.
- Vint va devorga montajlash konstruksiyasi haqida batafsil ma'lumot olish uchun Alohida xaridga qarang.
- Agar siz mahsulotni devorga o'rnatmoqchi bo'lsangiz, VESA (Videoelektronikani Standartlashtirish Uyushmasi) standartiga mos keladigan o'rnatish interfeysini (ixtiyoriy qismlarni) mahsulotning orqa tarafiga mahkamlang. Televizorni devorga mahkamlanadigan tayanchdan (ixtiyoriy qismlardan) foydalangan holda o'rnatishda uning tushib ketmasligi uchun tayanchni mustahkam qotiring.
- TVni devorga montajlash vaqtida elektr va signal kabellarini TVning orqasidan osilib turadigan qilib osmang.
- Agar ushbu mahsulot moy yoki moyli tuman ta'siriga uchrashi mumkin bo'lsa, uni devorga o'rnatmang. Bu mahsulotni buzishi va uning tushib ketishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ulanishlar

Istalagan tashqi qurilmani televizorga ulang va tegishli qurilmani tanlash uchun kirish manbasini o'zgartiring. Tashqi qurilmani ulash bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish uchun har bir qurilma bilan taqdim qilibadigan qo'llanmaga qarang.

Antenna/Kabel

Televizorni devordagi antenna uyachasiga RF kabeli (75 Ω) bilan ulang.

- 2 tadan ko'proq televizordan foydalanish uchun signal splitteridan foydalaning.
- Agar tasvir sifati yomon bo'lsa, tasvir sifatini yaxshilash uchun signal kuchaytirgichni to'g'ri o'rnatib.
- Agar antenna ulangan holda tasvir sifati yomon bo'lsa, antennani to'g'ri yo'naltirishga harakat qiling.
- Antenna kabeli va konverter qurilma bilan birga berilmaydi.

Sun'iy yo'ldosh antennisasi

Televizorni sun'iy yo'ldosh antennisadagi sun'iy yo'ldosh uyachasiga RF kabeli (75 Ω) bilan ulang. (Rusumga qarang)

CI moduli

Raqamli televideniye rejimida shifrlangan (pullik) xizmatlardan foydalaning. (Rusumga qarang)

- CI modulining PCMCIA kartasi slotiga to'g'ri yo'nalishda kiritilganligini tekshiring. Agar modul to'g'ri kiritilmagan bo'lsa, bu televizor va PCMCIA kartasi slotining buzilishiga olib kelishi mumkin.
- Agar CI+ CAM ulangan vaqt televizor hech qanday video va audio tarkibni namoyish qilmasa, Antenna/Kabel/Sun'iy yo'ldosh xizmat operatoriga murojaat qiling.

Boshqa ulanishlar

Televizoringizni tashqi qurilmalarga ulang. Yuqori sifatli tasvir va audio uchun televizoringizni tashqi qurilmaga HDMI kabeli bilan ulang. Ba'zi alohida kabellar qurilma bilan birga taqdim qilinmaydi.

HDMI

- Qo'llab-quvvatlanadigan HDMI audio formatlari (Rusumga qarang):
Dolby Digital / Dolby Digital Plus (32 kHz / 44,1 kHz / 48 kHz),
PCM (32 kHz / 44,1 kHz / 48 kHz / 96 kHz / 192 kHz)

USB


5 V yoki undan pastroq nominal kuchlanish va 500 mA yoki undan kamroq nominal tokda ishlaydigan tashqi USB qattiq diskdan foydalanish tavsiya etiladi.

Tashqi qurilmalar

Foydalanish mumkin bo'lgan tashqi qurilmalar: Blu-ray pleyer, HD qabul qiluvchilari, DVD pleyerlar, VCR'lar, audio tizimlar, USB saqlash qurilmalari, ShK, o'yin qurilmalari va boshqa tashqi qurilmalar.

- Tashqi qurilmani ulash rusumga bog'liq holda farq qilishi mumkin.
- Tashqi qurilmalarni televizor portlari tartibiga bog'liq bo'lmagan holda televizorga ulang.
- Foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar olish uchun tashqi qurilma qo'llanmasiga qarang.
- O'yin qurilmasini televizorga ulash uchun o'yin qurilmasi bilan birga yetkazib berilgan kabeldan foydalaning.
- Kompyuter rejimida tasvir aniqligi, vertikal namunalar, kontrast yoki ravshanlik bilan bog'liq shovqinlar mavjud bo'lishi mumkin. Agar shovqinlar mavjud bo'lsa, kompyuter chiqishini boshqa tasvir aniqligiga o'zgartiring, yangilash intervalini boshqasiga sozlang yoki [Tasvir] menyusida tasvir aniq bo'lguniga qadar ravshanlik va kontrast darajasini o'zgartiring.
- Kompyuter rejimida ayrim tasvir aniqligi sozlanmalari videokartaga bog'liq ravishda kutilganidek ishlamasligi mumkin.
- Simli LAN orqali ulayotganda CAT 7 kabelidan foydalanish tavsiya qilinadi. (Faqat LAN port mavjud bo'lganda.)

Tashqi karnaylar



- Faqat 3 qutbli 3,5 mm'li Stereo uya bilan foydalaning.
- Tashqi karnayni ulash uchun quloqlik yoki quloqchinlaringizni portga ulamang.


Tarmoq

(Rusumga qarab)

Simli tarmoq ulanishi

Bu TV Pro:Centric serveriga **LAN** porti orqali ulanishi mumkin. Jismoniy ulanish amalga oshirilgandan so'ng, TV'da tarmoq kommunikatsiyasi sozlanishi lozim.

Modem yoki routingning **LAN** portini Pro:Centric serveridan Tv'dagi **LAN** portiga ulang.




- Modem yoki routingning **LAN** portini Tv'dagi **LAN** portiga ulang.



- Modulli telefon kabelini **LAN** portiga ulamang.
- Turti ulanish usullari bo'lganligi sababli telekommunikatsiya operatoringiz yoki internet xizmati ta'minotchigiz ko'rsatmalariga rioya qiling.

Tugmadan foydalanish

TV funksiyalarini osongina mos tugmalar yordamida ishlatishingiz mumkin.



Asosiy funksiyalar

	Yoqish (Bosish) O'chirish ¹ (Bosib ushlab turish) Menyu boshqaruvi (Bosish ²) Menyu tanlovi (Bosib ushlab turish ³)
--	---

- 1 Barcha ishlayotgan ilovalar yopiladi.
- 2 Menyu bo'ylab harakat qilish uchun TV yoqilgan bo'lganda tugmani qisqacha bosning.
- 3 Menyuga kirgandan keyin ushbu funksiyadan foydalanishingiz mumkin.

Menyuni sozlash


TV yoqilgan bo'lganda, tugmasini bir marta bosning. Menyu elementlarini mos tugma yordamida o'zgartirishingiz mumkin.

	Televizorni o'chiradi.
	Kirish manbasini o'zgartiradi.
	Saqlab olingan kanallar bo'ylab o'tkazadi.
	Ovoz balandligi darajasini sozlaydi.

Yaxshi ko'rinishi uchun TV burchagini sozlash

(Rusumga qarab)

Ekran yaxshi ko'rinishi uchun TV burchagini 20 daraja chap yoki o'ngga aylantirish orqali sozlang.



- Mahsulot burchagini sozlayotganda barmoqlaringizga ehtiyot bo'ling.
- Qo'l yoki barmog'ingizni qisib olsangiz, bu sizga shikast yetkazishi mumkin. Agar mahsulot ortiqcha darajada og'dirilgan bo'lsa, u tushib ketishi va natijada buzilishi yoki unga zarar yetishi mumkin.

Masofadan boshqarish pultidan foydalanish

Ushbu qo'llanmadagi tavsiflar masofadan boshqarish pultidagi tugmalarga asoslangan. Iltimos, ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va televizordagi to'g'ri foydalaning.

Batareyalarni almashtirish uchun batareya qo'yish bo'lmasi qopqog'ini oching ⊕ va ⊖ uchlari bo'lma ichidagi yorliqqa mos bo'lgan batareyalar (1,5 V AAA) bilan almashtiring va batareya qo'yish bo'lmasi qopqog'ini yoping. Batareyalarni olib tashlash uchun o'rnatish harakatlarini teskari tartibda bajaring.

Masofadan boshqarish pultini televizordagi masofadan boshqarish sensoriga yo'naltirganligingizga ishonch hosil qiling.

(Rusumga qarab)



(Rusum yoki hududga qarab ayrim tugmalar va xizmatlar mavjud bo'lmastligi ham mumkin.)

* Tugmadan foydalanish uchun uni 3 soniyadan ko'proq bosib turing.

⏻ (QUVVAT) Televizorni o'chiradi va yoqadi.

TV/RAD Radio, televizor va DTV dasturini tanlaydi.

SUBTITLE O'zingiz istagan subititni raqamli rejimda namoyon qiladi.

AD Audio tavsif funksiyasi yoqiladi.

RATIO Tasvir o'lchamini o'zgartiradi.

(MANBA) Ma'lumot manbasini o'zgartiradi.

Raqamli tugmalar Raqamlarni kiritadi.

LIST Saqlab olingan kanallar ro'yxatiga kiradi.

Q.VIEW Avvalgi ko'rilgan kanalga qaytaradi.

+/- Ovoz balandligi darajasini sozlaydi.

FAV Sizingiz sevimli kanallaringiz ro'yxatiga kiradi.

GUIDE Teledasturlar ro'yxatini ko'rsatadi.

(OVOZSIZ) Barcha ovozlarni o'chiradi.

(OVOZSIZ) [Maxsus imkoniyat] menyusiga kiradi.

^ P ^ Saqlab olingan kanallar bo'yab o'tkazadi.

^ PAGE ^ Avvalgi yoki keyingi ekranga o'tkazadi.

Telematn tugmalari TEXT, T.OPT Ushbu tugmalardan telematnlar uchun foydalaniladi.

(UY) Uy menyusiga qaytaradi.

(SOZLANMALAR) Parametrlar menyusiga kiradi.

Q.MENU Tekzor menyularga kiradi.

Yo'naltirish tugmalari (yuqoriga/pastga/chapga/o'ngga)

Menyular yoki parametrlar bo'yab ko'rish imkonini beradi.

⊙ OK Menyular yoki parametrlarni tanlaydi va siz kiritgan ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

BACK Avvalgi holatga qaytaradi.

EXIT Ekranni mavjud tasvirlardan tozalaydi va televizor ko'rish rejimiga qaytaradi.


ⓘ INFO Joriy dastur va ekran to'g'risidagi ma'lumotni ko'rsatadi.

● REC/* Bu funktsiya qo'llab-quvvatlanmaydi.

Boshqaruv tugmalari Media tarkiblarni boshqaradi.

Bular ayrim menyulardagi maxsus funktsiyalarga kirish imkonini beradi.

(Rusumga qarab)



(Rusum yoki hududga qarab ayrim tugmalar va xizmatlar mavjud bo'lmisligi ham mumkin.)

* **Tugmadan foydalanish uchun uni 3 soniyadan ko'proq bosib turing.**

⏻ (QUVVAT) Televizorni o'chiradi va yoqadi.

⏻ ENERGY SAVING Quvvat tejash uchun ekran yorqinligini sozlaydi.

⦿ AV MODE AV rejimini tanlaydi.

⦿ INPUT Kirish manbasini o'zgartiradi.

TV/RAD Radio, televizor va DTV dasturini tanlaydi.

Raqamli tugmalar Raqamlarni kiritadi.

LIST Saqlab olingan kanallar ro'yxatiga kiradi.

Q.VIEW Avvalgi ko'rilgan kanalga qaytaradi.

+/- Ovoz balandligi darajasini sozlaydi.

FAV Sizning sevimli kanallaringiz ro'yxatiga kiradi.

RATIO Tasvir o'lchamini o'zgartiradi.

MUTE Barcha ovozlarni o'chiradi.

MUTE [Maxsus imkoniyat] menyusiga kiradi.

^ P v Saqlab olingan kanallar bo'ylab o'tkazadi.

! PAGE ! Avvalgi yoki keyingi ekranga o'tkazadi.

GUIDE Teledasturlar ro'yxatini ko'rsatadi.

PORTAL Mehmonxona interaktiv menyusini ko'rsatadi va olib tashlaydi.

INFO Joriy dastur va ekran to'g'risidagi ma'lumotni ko'rsatadi.

Yo'naltirish tugmalari (yuqoriga/pastga/chapga/o'ngga) Menyular yoki parametrlar bo'ylab ko'rish imkonini beradi.

OK Menyular yoki parametrlarni tanlaydi va siz kiritgan ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

SETTINGS Asosiy menyularga kiradi.

↶ (ORQAGA) Avvalgi holatga qaytaradi.

EXIT Ekranni mavjud tasvirlardan tozalaydi va televizor ko'rish rejimiga qaytaradi.

Bular ayrim menyulardagi maxsus funksiyalarga kirish imkonini beradi.

Telematn tugmalari **TEXT, T.OPT** Ushbu tugmalardan telematnlar uchun foydalaniladi.

SUBTITLE O'zingiz istagan subtitrni raqamli rejimda namoyon qiladi.

Boshqaruv tugmalari Media tarkiblarni boshqaradi.

SIMPLINK HDMI-CEC orqali HDMI kabeli bilan ulangan AV qurilmalariga kiradi. SIMPLINK menyusini ochadi.

Q.MENU Tekzor menyularga kiradi.

AD Audio tavsif funksiyasi yoqiladi.

ALARM Bu funktsiya qo'llab-quvvatlanmaydi.



- Yangi batareyalarni eski batareyalar bilan aralash o'rnatmang. Bu batareyalarning haddan ziyod qizib ketishi va natijada oqishiga olib kelishi mumkin.
- Batareyaning qutblari to'g'ri qo'yilmasa, batareya portlashi yoki suyuqlik chiqarishi mumkin, natijada yong'in chiqishi, tan jarohati yetishi yoki atrof-muhit ifloslanishi mumkin.
- Bu apparaturalar batareyadan foydalanadi. Hamjamiyatingizda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida bu batareyalarni to'g'ri utilizatsiya qilinishini talab qiluvchi qonunlar mavjud bo'lishi mumkin. Joylashtirish yoki utilizatsiya ma'lumotlari uchun mahalliy boshqaruv organlari bilan bog'laning.
- Mahsulotning ichki va tashqi batareyalari to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri, yong'in yoki shunga o'xshash narsalar ta'siri ostida bo'lmisligi zarur.

Nosozliklarni bartaraf qilish

Samaradorlikni yaxshilash uchun dasturiy ta'minot versiyasi yangilanishi mumkin.

Mijoz o'z moslamasi LGE dasturiga mos kelishiga ishonch hosil qilishi zarur. Zarur bo'lsa, LGE bilan maslahatlashing va LGE tomonidan taqdim etilgan yo'riqnomada ko'rsatilgan dasturiy ta'minot versiyasini yuklang.

Televizorni masofadan boshqarish pulti orqali boshqarishning iloji yo'q.

- Mahsulot masofadan boshqarish pulti sensorini tekshiring va qaytadan urinib ko'ring.
- Mahsulot va masofadan boshqarish pulti orasida hech qanday to'siqning mavjud emasligini tekshiring.
- Batareyalarning ishlayotganligi va to'g'ri o'rnatilganligini (+ ga ⊕, - ga ⊖) tekshiring.

Tasvir namoyishi va ovoz mavjud emas.

- Mahsulotning yoqilganligini tekshiring.
- Quvvat manbaiga ulash shnurining rozetkaga ulanganligini tekshiring.
- Boshqa qurilmalarni ulab ko'rish yo'li bilan rozetkaning ishlayotganligini tekshirib ko'ring.

Televizor to'satdan o'chib qoladi.

- Quvvat boshqaruvi sozlanmalarini tekshiring. Quvvat ta'minoti uzilgan bo'lishi mumkin.
- Vaqtga bog'liq sozlamalarda avtomatik o'chirish funksiyasi faollashtirilganligini tekshiring.
- Televizor yoqilgan vaqtda signal mavjud bo'lmasa, 15 daqiqalik faolsizlikdan keyin televizor avtomatik ravishda o'chadi.

ShKga ulanayotganda (RGB/HDMI), signal aniqlanmadi.

- Masofadan boshqarish pultidan foydalangan holda televizorni o'chiring va yoqing.
- RGB/HDMI kabelini qaytadan ulang.
- Televizor yoqilgan holda kompyuterni o'chirib yoqing.

Noto'g'ri ko'rsatayotgan ekran


- Agar mahsulotga tegilganda sovuqdek tuyulsa, u yoqilganda ozgina mitillash bo'lishi mumkin. Bu tabiiy holdir; mahsulotda hech qanday muammo mavjud emas.
- Bu panel millionlab pikselni o'z ichiga olgan ilg'or mahsulot hisoblanadi. Siz panelda o'lchami 1 ppm bo'lgan kichkina qora nuqtalarni va/yoki yorqin (qizil, ko'k, yashil) rangdagi nuqtalarni ko'rishingiz mumkin. Bu mahsulotning noto'g'ri ishlayotganligini bildirmaydi va ishlash samaradorligiga va mahsulot ishonchililigiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ushbu hodisa uchinchi tomon ishlab chiqaruvchilarining mahsulotlarida ham sodir bo'lishi mumkin va buning uchun ular almashtirib yoki xarajatlar qoplab berilmaydi.
- Ko'rish nuqtasiga qarab (chap/o'ng/yuqori/past) paneldagi ravshanlik darajasi va ranglar farq qilishi mumkin. Bu hodisa panelning o'ziga xos xususiyatlari tufayli sodir bo'ladi. U ishlash samaradorligi bilan bog'liq emas va uning noto'g'ri ishlayotganligini anglatmaydi.
- Uzoq vaqt davomida harakatsiz tasvirni namoyish qilish qoldiq tasvirga olib kelishi mumkin. TV ekranida uzoq vaqt davomida harakatsiz tasvirning namoyish qilinishiga yo'l qo'ymang.

Hosil qilingan ovoz

- "Qarsillovchi" shovqin: Televizor ko'rish yoki o'chirish vaqtda chiqadigan qarsillovchi shovqin harorat va namlik tufayli plastik tarkibiy qismlarning qisqarishi orqali hosil qilinadi. Bu harorat natijasida deformatsiyalanish talab qilinadigan mahsulotlar uchun tabiiy hol hisoblanadi.
- Elektr zanjirining guvillashi/panelning g'ong'illashi: Mahsulotni ishlatish uchun katta miqdordagi elektr toki bilan ta'minlovchi yuqori tezlikda o'zgaruvchi zanjir tomonidan sezilarli shovqin hosil qilinadi. Shovqin darajasi mahsulotga turiga bog'liq. Ushbu hosil qilingan ovoz mahsulotning ishlash samaradorligiga va uning ishonchililigiga ta'sir ko'rsatmaydi.



- Mahsulotni tozalash vaqtida panel yoki yo'naltiruvchi panelning yuqori, chap yoki o'ng tomonidagi tiriqishga har qanday suyuqlik yoki begona ob'yektlar kirmasligiga ehtiyot bo'ling. (Rusumga qarab)



- Ortiqcha suv yoki tozalovchini matodan siqib chiqarganingizga ishonch hosil qiling.
- TV ekrani ustiga to'g'ridan-to'g'ri suv yoki tozalovchini sachratmang.
- Ekranni artish uchun quruq matoga yetarli darajada suv yoki tozalovchi sepihga ishonch hosil qiling.

Texnik xususiyatlar

(Mamlakatga bog'liq)

Efirga uzatish turlari				
	Raqamli TV			Analogli TV
Televizion tizim	DVB-S/S2 DVB-T/T2 DVB-C			PAL/SECAM B/G, D/K, I SECAM L
Kanal qamrovi (Diapazon)	DVB-S/S2	DVB-C	DVB-T/T2	46 ~ 862 MHz
	950 ~ 2150 MHz	46 ~ 890 MHz	VHF III: 174 ~ 230 MHz UHF IV: 470 ~ 606 MHz UHF V: 606 ~ 862 MHz S Diapazon II: 230 ~ 300 MHz S Diapazon III: 300 ~ 470 MHz	
Saqlanadigan kanallarning maksimal soni	6000	2000		
Tashqi antenna qarshiligi	75 Ω			
CI Modul o'lchami (K x B x O)	100,0 mm x 55,0 mm x 5,0 mm			

Atrof-muhit holati	
Ishlatish harorati	0 °C dan 40 °C gacha
Ishlatish namligi	80 % dan past
Saqlash harorati	-20 °C dan 60 °C gacha
Saqlash namligi	85 % dan past

HDMI-DTV-ni qo'llab-quvvatlaydigan rejim

Tasvir aniqligi	Gorizontal chastota (kHz)	Vertikal chastota (Hz)
640 x 480p	31,46	59,94
	31,50	60,00
720 x 480p	31,469	59,94
	31,50	60,00
720 x 576p	31,250	50,00
1280 x 720p	37,50	50,00
	45,00	60,00
	44,96	59,94
1920 x 1080i	28,125	50,00
	33,75	60,00
	33,72	59,94
1920 x 1080p	56,250	50,00
	67,50	60,00
	67,432	59,94
	27,00	24,00
	26,973	23,976
	33,75	30,00
	33,716	29,976

HDMI-PC-ni qo'llab-quvvatlaydigan rejim

- ShK audiosi qo'llab-quvvatlanmaydi.
- ShK rejimi uchun HDMI IN 1 dan foydalaning. (Rusumga qarab)

Tasvir aniqligi	Gorizontal chastota (kHz)	Vertikal chastota (Hz)
640 x 350	31,468	70,09
720 x 400	31,469	70,08
640 x 480	31,469	59,94
800 x 600	37,879	60,31
1024 x 768	48,363	60,00
1152 x 864	54,348	60,053
1360 x 768	47,712	60,015
1280 x 1024 ¹	63,981	60,020
1920 x 1080 ¹	67,50	60,00

¹ Faqat 43/49LT34*

Komponent portga ulash to'g'risidagi ma'lumotlar

TVdagi komponent portlar	Y	P _B	P _R
--------------------------	---	----------------	----------------

DVD pleyerdagi video chiqish portlari	Y	P _B	P _R
	Y	B-Y	R-Y
	Y	Cb	Cr
	Y	Pb	Pr

Signal	Tarkibiy qism
480i / 576i	O
480p / 576p	O
720p / 1080i	O
1080p	O

RGB-PC-ni qo'llab-quvvatlaydigan rejim

Tasvir aniqligi	Gorizontal chastota (kHz)	Vertikal chastota (Hz)
640 x 350	31,468	70,09
720 x 400	31,469	70,08
640 x 480	31,469	59,94
800 x 600	37,879	60,31
1024 x 768	48,363	60,00
1152 x 864	54,348	60,053
1360 x 768	47,712	60,015
1280 x 1024 ¹	63,981	60,020
1920 x 1080 ¹	66,587	59,934
	67,50	60,00

¹ Faqat 43/49LT34*

Mening mediamni qo'llab-quvvatlovchi fayl

- Ma'lumotlarni o'tkazishning maksimal tezligi : 20 Mbit/s (soniyasiga megabit)
- Tashqi qo'llab-quvvatlanadigan subtitrl formatlari : *.srt, *.smi, *.sub (Faqat SubViewer 1.0/2.0 uchun), *.ass, *.ssa, *.txt

Qo'llab-quvvatlanadigan fotosurat formatlari

Kengaytma	Element	Tasvir aniqligi
.jpeg, .jpg, .jpe	Mavjud fayl turi	SOF0: Asosiy SOF1: Kengaytirilgan ketma-ket SOF2: Progressiv
	Fotosurat hajmi	Minimal : 64 (K) x 64 (B) Maksimum (Normal Tur) : 15360 (K) x 8640 (B) Maksimum (Progressiv tur) : 1920 (K) x 1440 (B)
.bmp	Fotosurat hajmi	Minimal : 64 (K) x 64 (B) Maksimum: 9600 (K) x 6400 (B)
.png	Mavjud fayl turi	Interlace, Non-Interlace
	Fotosurat hajmi	Minimal : 64 (K) x 64 (B) Maksimum (Interlace) : 1200 (K) x 800 (B) Maksimum (Non-Interlace) : 9600 (K) x 6400 (B)

- BMP va PNG formatlarini namoyish qilish JPEG formatini namoyish qilishga nisbatan sekinroq bo'lishi mumkin.
- Nostandart fotosurat/tasvir fayli ko'rsatilmagligi mumkin.

Qo'llab-quvvatlanadigan audio formatlar

Fayl turi	Element	Info
mp3	Ma'lumotlarni uzatish tezligi	32 Kb/s ~ 320 Kb/s
	Raqamlashtirish chastotasi	16 kHz - 48 kHz
	Qo'llab-quvvatlash	MPEG-1, MPEG-2, Layer2, Layer3
AAC	Ma'lumotlarni uzatish tezligi	Erkin Format
	Raqamlashtirish chastotasi	8 kHz - 48 kHz
	Qo'llab-quvvatlash	ADIF, ADTS
M4A	Ma'lumotlarni uzatish tezligi	Erkin Format
	Raqamlashtirish chastotasi	8 kHz - 48 kHz
	Qo'llab-quvvatlash	MPEG-4
WMA	Ma'lumotlarni uzatish tezligi	128 Kb/s ~ 320 Kb/s
	Raqamlashtirish chastotasi	8 kHz - 48 kHz
	Qo'llab-quvvatlash	WMA7, WMA8, WMA9 Standarti
WMA 10 Pro	Ma'lumotlarni uzatish tezligi	~ 768 Kb/s
	Kanal / Raqamlashtirish chastotasi	M0 : 2 tagacha kanal @ 48 kHz (LBR rejimidan tashqari), M1 : 5.1 tagacha kanal @ 48 kHz, M2 : 5.1 tagacha kanal @ 96 kHz
	Qo'llab-quvvatlash	WMA 10 Pro
OGG	Ma'lumotlarni uzatish tezligi	Erkin Format
	Raqamlashtirish chastotasi	8 kHz - 48 kHz
	Qo'llab-quvvatlash	OGG Vorbis

Qo'llab-quvvatlanadigan video formatlar

- Maksimum: 1920 x 1080 @ 30p (faqat Motion JPEG 640 x 480 @ 30p)
- H.264/AVC qo'llab-quvvatlanadigan 4.1 yoki undan pastroq darajadagi profil.

Kengaytma	Kodek	
.asf .wmv	Video	MPEG-4 Part2, XViD, H.264/AVC, VC1(WMV3, WVC1)
	Audio	WMA Standarti, WMA9(Pro), MP3, AAC, AC3
.avi	Video	MPEG-2, MPEG-4 Part2, XViD, H.264/AVC
	Audio	HE-AAC, LPCM, ADPCM, MPEG-1 Layer I, MPEG-1 Layer II, Dolby Digital, MPEG-1 Layer III (MP3)
.ts, .trp, .tp .mts, .m2ts	Video	H.264/AVC, MPEG-2, H.265/HEVC
	Audio	MPEG-1 Layer I, MPEG-1 Layer II, MPEG-1 Layer III (MP3), Dolby Digital, Dolby Digital Plus, AAC, HE-AAC
.vob	Video	MPEG-1, MPEG-2
	Audio	Dolby Digital, MPEG-1 Layer I, MPEG-1 Layer II, DVD-LPCM
.mp4, .m4v .mov	Video	MPEG-2, MPEG-4 Part2, XViD, H.264/AVC
	Audio	AAC, MPEG-1 Layer III (MP3)
.mkv	Video	MPEG-2, MPEG-4 Part2, XViD, H.264/AVC
	Audio	HE-AAC, Dolby Digital, MPEG-1 Layer III (MP3), LPCM
.mpg, .mpeg .mpe	Video	MPEG-1, MPEG-2
	Audio	MPEG-1 Layer I, MPEG-1 Layer II, Dolby Digital, LPCM
.dat	Video	MPEG-1, MPEG-2
	Audio	MP2
.flv	Video	Sorenson H.263, H.264/AVC
	Audio	MP3, AAC, HE-AAC
.3gp	Video	H.264/AVC, MPEG-4 Part2
	Audio	AAC, AMR(NB/WB)

Ochiq manba dasturi eslatmasi

GPL, LGPL, MPL va ushbu mahsulotda mavjud bo'lgan boshqa ochiq kod litsenziyalari ostida manba kodini olish uchun <http://opensource.lge.com> saytiga tashrif buyuring. Ochiq turdagi kodlarga qo'shimcha ravishda barcha tegishli litsenziya shartlari, kafolatlarning rad qilinishlari va mualliflik huquqlari to'g'risidagi bildirishnomalarni ham yuklab olish mumkin.

LG Electronics opensource@lge.com manziliga so'rov yuborilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan, media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CD-ROM orqali ham ochiq turdagi kodni yetkazib beradi.

Bu taklif mahsulotni yetkazib berilgandan so'ng uch yil ichida amal qiladi. Bu taklif ushbu ma'lumotni olgan har kim uchun amal qiladi.

Litsenziyalar

Qo'shimcha litsenziyalar rusumga qarab farq qilishi mumkin.



The terms HDMI and HDMI High-Definition Multimedia Interface, and the HDMI Logo are trademarks or registered trademarks of HDMI Licensing Administrator, Inc. in the United States and other countries.

Manufactured under license from Dolby Laboratories. Dolby, Dolby Vision, Dolby Audio, Dolby Atmos, and the double-D symbol are trademarks of Dolby Laboratories.

(Rusumga qarab)





Mahsulotning rusumi va seriya raqami
mahsulotning orqa paneli va yon tomonida
ko'rsatilgan. Xizmat ko'rsatish zarur bo'lgan
holatlar uchun ularni quyida yozib qo'ying.

Rusum _____

Seriya raqami _____